



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Julmatova Sodat Jur'atjon qizi

Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi
sjulmatova@gmail.com
+998975786875

PSIXOLOGIYADA O'SPIRINLARNING MUSIQIY BILIM OLISH JARAYONLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola o'spirinlik yoshidagilar psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari haqida bo'lib, o'tish davridagi o'zgarishlarga nisbatan musiqani o'rinli qo'llay olish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yosh davrlari, qobiliyat, imkoniyat, "men"ni ochib berish, "Men-kontsepsiya"si, oriyentatsiya, 17 yosh inqirozi, L.Barenboym, S.Stanislavskiy.

Inson yosh davrlarining eng muhim va nozik davri hisoblanadigan o'spirinlik haqida gap ketganda, rivojlanishning kuchli ekstremal davri deyishimiz mumkin bo'ladi. Chunki, anyan bu davrda shaxsing o'ziga nisbatan e'tiroflanishi uchun ehtiyoji organ davr hisoblanadi. Shuning uchun ham ehtiyojga nisbatan harakat yuqorilashadi.

Yoshlik davrida rivojlanish jarayoni qanday kechadi? Ko'pincha bu yosh bo'ronli davr deb hisoblanadi. Hayotning ma'nosini, o'zining dunyodagi o'rnini topish ayniqsa qizg'in pallaga chiqadi. Kelajakda faqat qondirish mumkin bo'ladigan intellektual va ijtimoiy buyurtmaning yangi ehtiyojlari paydo bo'ladi; ba'zida ichki nizolar va boshqalar bilan munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga keladi.



Umuman olganda, o'spirin uchun xarakterli izlanishlar va shubhalar shaxsning to'liq shakllanishiga olib keladi. Odatda, o'spirin shaxsining shakllanishi jarayoni – qiyin vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga imkon beradigan, ko'proq mustaqil, ijodiy, moslashuvchan tafakkur hosil bo'ladi.

Rivojlanishning yana ikkita varianti mavjud. Birinchidan, bu tezkor, keskin o'zgarishlar bo'lib, bu o'zini o'zi tartibga solishning yuqori darajasi tufayli keskin hissiy buzilishlarsiz yaxshi boshqariladigan variant. O'rta maktab o'quvchilari o'zlarining hayotiy maqsadlarini erta belgilaydilar va ularga erishishga astoydil harakat qiladilar. Biroq, ixtiyoriy tarzda o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga, ularda refleksiya va emotsional soha kam rivojlangan bo'ladi. O'ziga nisbatan assessmentlik kuchli o'quvchilarda emotsional qarshiliklarni yengishda qoidalarga yondashuv yordamga keladi.

Ikkinchisi, o'z hayot yo'lini qiynalib topish bilan bog'liq. Bunday o'spirinlar o'zlariga ishonmaydilar va o'zlarini yaxshi anglamaydilar. Refleksiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli, bu davrda o'zini o'zi anglash mustaqillik bilan kompensatsiyalanmaydi. O'spirinlar impulsiv, o'zlarining xatti-harakatlarida va munosabatlarida noadekvat, yetarli darajada o'z hatti-harakatlariga javob bermaydigan vaziyatlar ham bo'ladi. Ba'zi o'quvchilarda jismoniy aktivlik oshadi, tajovuskorlik namoyon bo'la boshlaydi. Ko'pincha ular ota-onalarining qadriyatlarini rad etishadi, ammo buning o'rniga ular o'zlariga tegishli biron bir narsani taklif qila olmaydilar. Voyaga yetganidan so'ng, ular shoshilishda davom etadilar va uzoq vaqt davomida mas'uliyatni to'la his etmaydilar. Aynan ikkinchi vaziyatda yechimni topish o'spirinning mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishini taminlaydi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi rivojlanish dinamikasi bir qator shartlarga bog'liq. Birinchidan, bu o'zini o'zi tasdiqlash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim odamlar bilan munosabat xususiyatlari. O'spirinlikdan yoshlik davriga o'tish davrida allaqachon kattalar bilan muloqotga alohida qiziqish paydo bo'ladi. O'rta maktabda bu an'ana kuchayadi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar ilk o'spirinlik davrida o'z kelajagini belgilashni shakllantirish uchun ham zarur, ammo u boshqa funktsiyalarga ham ega.



Bu munosabatlar samimiy, shaxsiy, referent bo‘lib qoladi. Bu davrda yuz berishi mumkin bo‘lgan eng katta umidsizlik holatlari tengdoshlar, qarama–qarshi jins vakillari bilan munosabatlar eng yaqin do‘st bilan muhokama qilinadi. Bunday aloqaning mazmuni hayot istiqbollari emas, balki reak vaqtdagi munosabat turiga kiradi. O‘spirinning o‘z do‘stiga yetkazilgan ma’lumoti yetarlicha sir bo‘lib qoladi. Muloqot o‘zaro tushunishni, ichki yaqinlikni, samimiylilikni talab qiladi. O‘ziga nisbatan boshqalarga bo‘lgan munosabatlariga asoslanib, o‘spirin o‘zining haqiqiy “men” ni ochib beradi, o‘z–o‘zi idrok etishni, o‘z–o‘zini hurmat qilishni mustahkamlaydi.

O‘rta maktablarda o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olgan holda, ma’lum bir o‘quvchining o‘zini o‘zi hurmat qilishi nafaqat umumiy vaziyatga, balki “Men–kontsepsiya” ning baholovchi tarkibiy qismini belgilaydigan individual qiymat yo‘nalishlariga ham bog‘liqligini ta’kidlaymiz. O‘zini o‘zi anglash va bezovtalik darajasidagi ba’zi bir tebranishlarga va shaxsiy rivojlanishning turli xil variantlariga qaramay, o‘spirinlik va o‘rta maktab chegarasida “men–kontsepsiya” ni shakllantirish bilan boshlangan ushbu davrda shaxsning umumiy barqarorligi haqida gapirish mumkin. O‘spirinlar o‘zlarini o‘smirlarga qaraganda ko‘proq idrok etishadi, ularning o‘z–o‘ziga hurmati odatda ancha yuqori. *O‘zini o‘zi boshqarish* jadal rivojlanadi, xatti–harakatlar va hissiyotlar ustidan nazorat kuchayadi. Ilk o‘spirinlikda kayfiyat yanada barqaror bo‘ladi va hissiyot bilan emas, ongli boshqariladi. Bu vaqtda shaxsning axloqiy barqarorligi rivojlana boshlaydi. O‘zining xatti–harakatlarida ilk o‘spirin borgan sari ko‘proq o‘z hayoti tajribasiga ega bo‘lsa–da, olgan bilimlari asosida shakllangan o‘z qarashlari, e’tiqodlariga tayanadi.

O‘z yo‘nalishini (oriyentatsiya) belgilash, ilk o‘spirinlarda shaxsni barqarorlashtirish, dunyoqarashni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ma’lumki, o‘spirinlik davrida o‘spirin o‘zining ichki dunyosini ochib beradi. Shu bilan birga, u rasmiy mantiqiy fikrlash darajasiga yetadi. Dunyo haqidagi bilimlarni to‘plash va tizimlashtirish, shaxsga qiziqish, aks ettirish bilan birga intellektual rivojlanish o‘spirinlik yoshida shakllanadi.



Bolalikda, yosh davrlarining chegaralari aniqdir. Bolalik o‘tmishda qolganda, barcha aqliy funktsiyalar asosan shakllanadi va shaxs barqarorlashuvi boshlandi, individual yosh chegaralari tobora ko‘proq shartli holga kichadi, ya’ni o‘ta keskin sezilmaydi. Ammo 17 yosh inqirozi maktabni bitirish va yangi mustaqil hayotning boshlanishi bilan real belgilanadi.

17 yosh inqirozini qiyin boshdan kechirayotganlar uchun turli xil qo‘rquvlar xarakterlidir. O‘zi va oilasi oldida tanlov, haqiqiy yutuqlar uchun javobgarlik bu vaqtda katta yukdir. Bunga yangi mustaqil hayot qo‘rquvi, xato qilish ehtimoli, universitetga kirishda muvaffaqiyatsizlik, o‘gil bolalarda harbiy xizmat oldidan qo‘rquv kiradi. Yuqori bezovtalik va shu kabi qo‘rquv, nevrotik reaksiyalarga olib kelishi mumkin, masalan, yakuniy yoki kirish imtihonlaridan oldin isitma, bosh og'rig'i va boshqalar. Bunday paytda gastrit, neyrodermatit yoki boshqa surunkali kasallikning kuchayishi boshlanishi mumkin.

Psixilogiyada musiqiy imkoniyatlar haqida gap ketganda diqqat ham ahamiyatli. Diqqat – bu o‘quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo‘laklardan biridir. Barcha bu Yuk musiqachilar favqulodda diqqat egasi bo‘lgan. Masalan, Mosart ko‘pchilik bo‘lgan xonada hamda begona ovozlar eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yoza olgan. Pol’shalik pianinochi va kompozitor I.Gofman maqsadga muvofiq yagona ish uslubi haqidagi savolga: diqqatni jamlash – omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob bergan. Rus kompozitori va pianinochisi N.Metner bo‘lsa: “Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda nima va qanday qilishni bilish zarur, shunda musiqachi kamroq toliqadi va charchaydi”, - degan edi.

I.Gofman shunday degan: “Ish to‘la aqliy diqqat jamligida bajarilgandagina serunum bo‘ladi”. Biroq “shu narsani esda tutish kerakki, mashg‘ulotlarda miqdoriy tomon faqat sifat tomoni bilan qo‘shilgandagina ma’no kasb etadi”.

E’tiborlilik, diqqatni jamlash qancha muddat ishlash kerak, degan savolga chek qo‘yadi. I.Gofman har yarim soatdan so‘ng tanaffus qilishni va hech qachon tanaffussiz bir yoki ikki soat ishlamaslikni tavsiya qilgan.

L.Barenboym tomonidan (V.I.Petrushinning «Muzikal’naya psixologiya». M. 1997, 121-122-betlar) musiqachilar uchun diqqatni takomillashtirish mashqlari taklif



etilgan edi. S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, aktyor diqqati, agar u o'zining kundalik ishida iloji boricha e'tiborli va intizomli bo'lsa, o'z professional ishiga tushunib va mas'uliyat bilan yondoshsa, maxsus mashqlarsiz ham takomillashishi mumkin. Shuningdek, barcha musiqachilar diqqatning shakllanishida o'zini tashqaridan turib eshita olish qobiliyati g'oyat muhim hisoblanishini ta'kidlashgan. Shuning uchun ham musiqachining chalayotgan narsasini nazorat qila olishi, o'zini tashqaridan eshita olishi – musiqa san'atining asoslaridan biridir.

Musiqachining diqqati turlicha: keng va tor, kech qoluvchi va ilgari ketuvchi bo'lishi mumkin. harakatlarning avtomatlashuvi diqqatning bir erga jamlanishiga yordam beradi.

Biz o'zimizni o'rab turgan olamni sezgi organlarimiz va his qilish orqali bilamiz va kerakli axborotni olamiz.

Sezgi – narsa va hodisalarni sezgi a'zolari orqali his qilishning oddiy psixik jarayonidir.

Sezgi organlari bilan muvofiq tarzda sezgining ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri, mushaklarni harakatga keltiruvchi va organik sezgi turlari mavjud. Musiqa san'atida eshitish, taktil (paypaslab), ya'ni qo'l tegizib his etish, harakat va ritmik sezgilar katta ahamiyatga ega. Xonandalar, damli (puflama) va torli musiqa cholg'ulari sozandalari uchun ovozga o'ziga xos to'lalilik va ohang bo'yoqdorligini ta'minlovchi vibrasion sezgi ham katta ahamiyatga ega. Sezgi qonuniyatiga ularning sifati, tezligi, davomiyligi va fazoviy lokalizasiya kabi xususiyatlarini ham kiritish mumkin. Eshitish sezgisi asosida musiqachilarda ichki eshitish va musiqiy eshitish xususiyatlari rivojlanadi. Bizning analizatorlarimiz moslashuvchanlik qobiliyatiga ega, ya'ni qo'zg'atuvchi ta'sirga ko'nika oladi. Uzoq muddat baland ovozda musiqani tinglagandan so'ng biz "piano" yoki "messo-forte" ovoz kuchidagi nozik o'zgarishlarni kam his etamiz. Uzoq vaqt sukunatda bo'lgach esa, biz hatto o'rta kuchdagi ovozni ham baland ovozdek qabul qilamiz. Masalan, Shopen kuyni hech qachon baland chalmagan. Lekin u piano, pianissimo, messo-forte bobida tengsiz ijrochiligi hisobiga ohangdorlikka erishgan.



Demak, san’atda hamma uchun bir xillik, universallik bor. San’atda individual ongga bog‘liq bo‘lmagan qanaqadir umumiy shakllar bor. Shuning uchun ba’zi tadqiqotchilar badiiy ijod qonuniyatlarini aniqlashga harakat qiladilar. Masalan. Genial musiqiy asralar qaysi qonuniyatlar asosida yaratilgan. Boshqa san’at turlarining qonuniyatldari qanaqa? Bu qonuniyatlarni bilish va qo‘llash orqali yana ko‘p san’at asarlarini yaratish mumkin, deydi tadqiqotchilar. Ammo, bunday asarlar oddiy axborot chiqindisi ham bo‘lib qolishi mumkin. Shunday nazariyotchilar ham borki, ular notalarni hisoblab, matematiklashtirib Motsart asarlarini dasturlashadi va shu asosda musiqiy ijodda geniallik formulasini keltirib chiqarishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.-104 b.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси “LEX.UZ” сайти.
4. “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zR Prezidenti Qarori (PQL-1518/20-2) Loyihasi. 21 dekabr, 2020 yil. Project.gov.uz
5. Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш



соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. 02.02.2018 й. № Пф-5325.

6. Ананьев Б.Г. Задачи психологии искусства. - Л., 1982, 234-245 с.
7. Асафьев Б.Г. Избранные статьи о музыкальном просвещении и образовании. 2-е изд. М., 1973.
8. Асафьев Б.Г. Музыкальная форма как процесс. Л., 1971.
9. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. М., 1966.
10. Бочкарев Л. Психологические аспекты публичного выступления музыкантов-исполнителей. // Вопросы психологии. 1975. №1.
11. Визго Т.С. Развитие музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой. –М., 1970, с. 70-71.
12. Jabborov A.N. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. T., 2004.
13. Julmatova S.J. O‘SPIRINLARDA MUSIQIY QOBILİYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. 5A210201 – Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand – 2021.